

Bu jadvaldan ko`rishimiz mumkinki yillar miqyosi bo`yicha ishlab chiqarishdan olingan daromadlar kamayib, transfertlardan olingan daromadlar ko`payib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.M.Soatov, H.G'. Nabiyev, D.H.Nabiyev, G.N.Tillaxo'jayeva "Statistika" darslik Toshkent-2011.500-550v
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmoni. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/>
3. Индексы и индикаторы человеческого развития. Обновленные статистические данные 2018. ПРООН, стр. 22-24.

**AHOLI TURMUSH DARAJASI VA UNI O'ZBEKISTONDA
OSHIRISHNING ISTIQBOLLI IMKONIYATLARI**

Ilyosov Asrorjon Axrorjon o'g'li

PhD, dotsent v.b.

Maxkamov Saidafzal Saidkamol o'g'li

Farg'ona Politexnika instituti

M 24-23 I guruh magistranti

Aholining turmush darajasini oshirish mamlakatimiz O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadidir. Mustaqillik yillarida yurtimizda aholi turmush darajasini yaxshilash borasida qator natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xalq daromadlari oshishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatidan o'zgaradi[1]."

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yilda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishga doir bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturlar doirasida hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlash orqali aholi real daromadlarini oshirish keltirib o'tilgan[2].

Mustaqillikdan buyon mamlakatimizda aholining umumiy daromadlarini oshirish, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarni oshirish, ta'lim, tibbiyot va boshqa barcha ishchi-xodimlarining malakasini oshirish, uy-joy bilan ta'minlash, ijtimoiy qulayliklar yaratish borasidagi ishlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunimizda bu boradagi ishlar samarasi aholi turmush darajasidagi ijobiy o'zgarishlarda o'z ifodasini topmoqda. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadida aholi turmush darajasini yuksaltirish bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish

va bu borada ilmiy asoslangan takliflar kiritish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi[3].

Turmush darajasi - bu insonni jismoniy, manaviy va ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilganlik darajasi va ularing qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kategoriya hisoblanadi. Turmush darajasi to'g'risida to'liqroq bilish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqurroq o'rganish lozim bo'ladi.

Qadimdan hozirgi kungacha iqtisodchilar aholi farovonligi va turmush darajasi bilan bog'liq muammolarni o'rganib chiqmoqdalar va bu ularning tovarlar qiymati, boylikning shakllanishi, uning taqsimlanishi, aholi daromadlari va xarajatlari, aholining real daromadlari, xarid qobiliyati haqidagi qarashlarida o'z aksini topmoqda[4].

Aholining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishi muammosini o'rganishning nazariy va uslubiy tamoyillari S.Bryu, J.K.Gelbreyt, M. Keyns, C. Makkonnel, C. Marks, A. Marshall, S. Mill, G. Myrdal, B. Pareto, , D. Rikardo, P. Samuelson, A. Smit, J. B. Say va boshqalarning fundamental ishlarida o'z asosini topgan[5].

Aholi turmush darajasi nazariyasi va amaliyotining turli jihatlari mahalliy olimlar, jumladan L. I. Abalkin, A. G. Aganbegyan, N. I. Buzlyakova, N. A. Volgina, S. Yu. Glazyeva, N. A. Gorelova, V. I. Guryeva, E. D. Katulskiy, V. V. Kulikova, A. A. Razumova, P. E. Shlander, D. G. Shchepanovu va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan va xulosalar berilgan.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tengsizligi, jumladan, hududiy sohadagi muammolar bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini T. Golenkova, T. I. Zaslavskaya, V. F. Mayera, P. S. Mstislavskiy, V. V. Radaeva, A. N. Romanova, A. E. Surinova kabi olimlar o'rganib chiqqan[6].

1-jadval

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar (2018-2022 yillar)

Ko'rsatkichlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022
Aholi umumiy daromadlari, mlrd.so'm	300842,7	365735,6	414968,7	519181,4	634797,0
o'tgan yilga nisbatan, % da	127,0	121,6	113,5	125,1	122,3
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm	9128,6	10891,3	12122,2	14869,8	17807,3
o'tgan yilga nisbatan, % da	124,8	119,3	111,3	122,7	119,8
Aholi real umumiy daromadlari, mlrd.so'm	255971,0	319336,1	367456,6	468448,4	569631,2
o'tgan yilga nisbatan, % da	108,1	106,1	100,5	112,9	109,7
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm	7767,0	9509,6	10734,3	13416,8	15979,3
o'tgan yilga nisbatan, % da	106,2	104,2	98,6	110,7	107,5

Izoh: O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar o'rganib tadqiq etilganiga qaramay, aholining ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishiga bag'ishlangan ilmiy asarlar yetarli emas. Aholi turmush darajasini yanada ilmiy tushunish va har tomonlama tahlil qilishni talab qiladigan turmush darajasini mintaqalararo taqqoslash muammolarini hozirgi kunda ko'proq o'rganish va tahlil qilish zarur.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, aholining umumiy daromadlari yillar kesimida o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarish aholi soni ortib borishi va mamlakatimizda aholi ish haqisi hisobiga ortmoqda. Ammo 2022-yilda 2021-yilga nisbatan nisbiy miqdorda kamayganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni -2.8 % (122.3-125.1) ga kamaygan.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar yillar kesimida ortgani bilan o'tgan yilga nisbatan pasaygan, ya'ni -2.9 % (119.8-122.7)ga kamaygan. Aholi soni ortib borgani sari aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar ham aholining umumiy daromadlari kamaygani kabi kamaydi. Bu kamayish aholi turmush darajasi holatiga ham ta'sir qiladi. Ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlarning ortishi aholining xarid qilish qobiliyatini ham pasayishiga, turli xil xizmatlardan foydalanish darajasini pasayishiga, aholi turmush farovonligini pasayishiga ham olib keladi.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 2022-yilda 15979.3 ming so'mni tashkil etib 2021-yilga nisbatan 2562.5 (15979.3-13416.8) ming so'mga ortganini ko'rishimiz mumkin. Ammo daromad miqdor jihatdan ortgani bilan nisbiy jihatdan bu ko'rsatkich -3.2 % (110.7-107.5) ga kamaygan. Aholining jon boshiga to'g'ri kelgan real daromadi pasaygani aholini xarid qilish qobiliyatini pasaytirgani bilan bir qatorda turli xil xizmatlardan foydalana olish qobiliyatini kamaytiradi. Aholi iste'mol savatchasida keltirilgan mahsulot va xizmatlardan foydalanishi uchun ham uning real daromadlari yuqori bo'lishi kerak. Agar mehnatga haq to'lash miqdori past bo'lsa, pensiyaning eng kam miqdori, o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan eng kam daromad va shu kabi ko'rsatkichlar tirikchilik minimumidan past bo'lishi mumkin emas, chunki, inson ushbu holatda hayot kechiradigan bo'lsa insonning jismoniy yashash ilojsizligi yuzaga chiqadi.

Umuman olganda, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot manzarasi yuksalib, aholi turmush darajasi yuksalib bormoqda. Shu bilan bir qatorda aholi ro'yxatini o'tkazish, aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra aholi turmush darajasini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash, aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarini oshirish, jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish bo'yicha harakatlar olib borilmoqda.

Aholi turmush darajasini oshirish uchun eng avvalo aholining real daromadlari hajmini va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni oshirish lozim. Buning uchun

- mamlakatda aholi bandligini ta'minlash,
- ish bilan band bo'lmagan aholini ro'yxatga olish va ularni ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, buning uchun

- ish bilan ta'minlash maqsadida O'zbekistonda tadbirkorlikni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni oshirish zarur.

- kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

- Norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlari:

1. Karimov, I. A. (2009). *Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekistan sharoitida uni bartarafetishning yo'llari va choralari. O'zbekiston.*

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 20.12.2022

3. Baxshillayeva, S. (2022). *Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari: daromadlar va xarajatlarning statistik tahlili. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot, 1(19), 56-59*

4. Baltabayeva, M. va Qodirova, D. (2022). *Zamonaviy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning ustuvorligini ta'minlash zarurati. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 423-427*

5. Yuldasheva Gulmira Azatovna, & Baltabayeva Malohat Ortiqalievna. (2022). *Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish mintaqaning innovatsion rivojlanishini boshqarish omili sifatida. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(05), 65-70.*

6. Shuhrat, R., & Shavkat, P. L. (2023). *Aholi turmush darajasi va daromadlarini oshirishning zamonaviy yo'llari. Innovations in Technology and Science Education, 2(13), 81-87.*

BARQAROR IQTISODIY O'SISH SHAROITIDA TURIZM VA AHOLIGA HIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH OMILLARI

Ismailova S.U.

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros obyektlari muammolarini o'rganish va turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

Bugungi kunda raqamli marketing – raqamli kanallar orqali mahsulotlar va xizmatlarni tahlil qilish va ilgari surish omillariga hisoblanadi. Raqamli marketing va an'anaviy marketing o'rtasidagi asosiy farq shundan iborat, raqamli marketing kampaniyalari faqat raqamli kanallar orqali o'tkaziladi va bu marketologlarga kampaniya samaradorligini tahlil qilish uchun ko'proq nazorat, asbob-uskunalar va ma'lumotlar beradi [1].

Raqamli texnologiyalardan foydalanish sayyohlik xizmatlari milliy va xalqaro bozorida raqobatni kuchaytirmoqda. Ammo bunda xizmatlarni ilgari ko'rsatishning eski usullari o'z ahamiyatini yo'qotishi zarurligi sharti bajarilishi kerak. Axborotni qayta ishlash va ulardan foydalanishning samarali texnologiyalarini yaratish faqat an'anaviy usullar "o'z pozitsiyalarini topshirgan